



ISSN
3060-527X

№7
2026

TA'LIMDA ISTIQBÖLLI IZLANISHLAR



TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

*Международный научно-методический
журнал*

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International scientific methodological journal

№ 7-Son, 1-Qism 2026-yil

Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>AXROROV VORIS YUNUSOVICH</i>	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA NIZOLI VAZIYATLARDA HISSIY BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	10
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS		
<i>ARABBAYEV AROBIDIN XUSNIDINOVICH</i>	PEDAGOGIK YO'NALISHDAGI MAGISTRANTLARDA ILMYI-TADQIQOT FAOLIYATI ASOSIDA ILMYI KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	PEDAGOGIKA	15
	ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНЫХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МАГИСТРАТУР ПО ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ НАПРАВЛЕНИЮ		
	FORMATION OF SCIENTIFIC SKILLS ON THE BASIS OF RESEARCH ACTIVITY IN MASTER STUDENTS IN PEDAGOGICAL DIRECTION		
<i>BADALXODJAYEV TO'LQINJON IKRAMIDDINOVICH</i>	SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MOSLASHUVCHAN O'QUV PLATFORMALARI	PEDAGOGIKA	24
	АДАПТИВНЫЕ ПЛАТФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА		
	ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED ADAPTIVE LEARNING PLATFORMS		
<i>HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	29
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>IBRAXIMJANOVA GAVHAR AMANBAYEVNA</i>	MUSIQA NAZARIYASI FANLARI UCHUN ELEKTRON TA'LIM PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH	PEDAGOGIKA	35
	СОЗДАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ДИСЦИПЛИН ПО ТЕОРИИ МУЗЫКИ		
	CREATION AND USE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL PLATFORMS FOR MUSIC THEORY DISCIPLINES		

<i>ISMATOVA HALOVAT BAKTIYOROVNA</i>	O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR	PSIXOLOGIYA	40
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS AND PREVENTIVE APPROACHES		
<i>KUSHAKOVA NODIRA ODILOVNA</i>	"J.D. SALINGERNING «THE CATCHER IN THE RYE» ROMANIDA «TA'LIM» KONSEPTUAL BIRLIGINING VERBALIZATSIYASI"	PEDAGOGIKA	46
	ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ЕДИНИЦЫ «ОБРАЗОВАНИЕ» В РОМАНЕ ДЖ. Д. СЭЛИНДЖЕРА «НАД ПРОПАСТЬЮ ВО РЖИ»		
	ERBALIZATION OF THE CONCEPTUAL UNIT "EDUCATION" IN J.D. SALINGER'S NOVEL THE CATCHER IN THE RYE		
<i>O'KTAMOVA SHOHIDA ODILBEK QIZI</i>	O'SMIRLAR EMOTSIONAL HOLATINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH	PSIXOLOGIYA	54
	ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ПОДРОСТКОВ		
	EXPERIMENTAL STUDY OF ADOLESCENTS' EMOTIONAL STATE		
<i>PANJIYEV QURBONNIYOZ BERDIYEVICH</i>	BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI	PEDAGOGIKA	62
	АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ		
	ANALYSIS OF MODERN APPROACHES TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS		
<i>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI	PSIXOLOGIYA	68
	РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ		
	THE ROLE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION		
<i>RO'ZIMURODOV ILYOS AZAMAT O'GLI</i>	BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING CHOLG'U IJROCHILIGI KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AFG'ON RUBOBIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	75
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АФГАНСКОГО РУБАБА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ		
	PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE AFGHAN RUBAB IN IMPROVING THE INSTRUMENTAL PERFORMANCE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS		

<i>XUSANOVA NIGINA BAXTIYOR QIZI</i>	O'QITUVCHINING INNOVATION MADANIYATI PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA	PEDAGOGIKA	81
	ИННОВАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА ПЕДАГОГА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	THE INNOVATIVE CULTURE OF A TEACHER AS AN IMPORTANT FACTOR OF PEDAGOGICAL ACTIVITY EFFICIENCY		
<i>XUDDIEVA UMIIDA AMINJON KIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI SUN'IY INTELLEKT TECHNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODI-KASI	PEDAGOGIKA	91
	МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА		
	METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES		
<i>SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI</i>	TALABALARDA PEDAGOGIK DIZAYN ASOSIDA TA'LIMYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	PSIXOLOGIYA	96
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА		
	PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL COMPETENCIES BASED ON INSTRUCTIONAL DESIGN		
<i>XAYDAROV ADXAM FAYZULLAEVICH</i>	TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	PEDAGOGIKA	102
	ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ		
	FEATURES OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION		
<i>AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI</i>	ALISHER NAVOIY ASARLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BAG'RIKENGLIK VA O'ZARO HURMAT MADANIYATINI TARBIVYALASH	PEDAGOGIKA	107
	ВОСПИТАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ И КУЛЬТУРЫ ВЗАИМНОГО УВАЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ		
	FOSTERING TOLERANCE AND A CULTURE OF MUTUAL RESPECT AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE WORKS OF ALISHER NAVOI		

<i>ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI</i>	MAXSUS TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLABQUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'RNI	PEDAGOGIKA	113
	РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ		
	THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS		
<i>АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ</i>	SHARQ FALSAFIY MEROSINING ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR UCHUN METODOLOGIK AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	121
	МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФСКОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОКА ДЛЯ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ		
	THE METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF THE EAST FOR CONTEMPORARY SCIENTIFIC RESEARCH		
<i>MUXAMEDOV FERUZ TO'LQINJONOVICH</i>	BO'LAJAK MUSIQA PEDAGOGLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	PSIXOLOGIYA	128
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКИ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG FUTURE MUSIC EDUCATORS		
<i>MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA</i>	YOSH OILALARDA EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	PSIXOLOGIYA	134
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ		
	PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF EMOTIONAL COMPETENCE IN YOUNG FAMILIES		
<i>XOLOV DILSHOD MURODILLO O'G'LI, SUNNATOVA O'G'LOY KAMARDIN QIZI, SUNNATOVA O'G'LOY KAMARDIN QIZI</i>	O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARINI VAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	PEDAGOGIKA	139
	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ, НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ		
	THEORETICAL FOUNDATIONS OF ASSESSING STUDENT		
<i>HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	145
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME-BASED TECHNOLOGIES TO DEVELOP THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS		

<i>ISMATOVA SAYYORA SOBIR QIZI</i>	TADBIRKORLIK KOMPITENSIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA UNING MAZMUN MOHIYATI	PEDAGOGIKA	152
	ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЁ СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ		
	BASIC CONCEPTS OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCE AND ITS CONTENT-RELATED ESSENCE		
<i>NORQULOVA SEVARA O'ROZ QIZI</i>	TALABALARNING INTELLEKTUAL VA KOGNITIV FAOLLIGINI TRENINGLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	158
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ТРЕНИНГОВ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' INTELLECTUAL AND COGNITIVE ACTIVITY THROUGH TRAINING PROGRAMS		
<i>ABDURAZZAQOV O'KTAM ABDUQAYUMOVICH</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY LAYOQATNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	163
	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ		
	DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMING CREATIVE COMPETENCES IN PRIMARY STUDENTS		
<i>SODIQOVA GULBARNO ODILJON QIZI</i>	QIZ TALABALARNING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI	PSIXOLOGIYA	169
	АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОК		
	ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FEMALE STUDENTS' SOCIAL ACTIVITY		
<i>TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH</i>	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIAGNOSTIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI	PEDAGOGIKA	173
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ		
	PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DIAGNOSTIC APPROACH TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS		
<i>XAMRAYEVA FIRUZA AZIMOVNA</i>	GADJETLARDAN FOYDALANISHNING BOLALAR DIQQAT, XOTIRA VA EMOTSIONAL REAKSIYALARIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	178
	ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕАКЦИИ ДЕТЕЙ		
	THE IMPACT OF GADGET USE ON CHILDREN'S ATTENTION, MEMORY, AND EMOTIONAL REACTIONS		

<i>TOHIROVA FERUZA</i>	BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	186
	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ		
	PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS		
<i>JO'RAYEV HUSEN IBOD O'G'LI</i>	TAEKWONDO MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI SPORTCHILAR TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	PEDAGOGIKA	194
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ТХЭКВОНДИСТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ		
	IMPROVING THE TECHNICAL AND TACTICAL PREPARATION OF TAEKWONDO ATHLETES THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TRAINING		
<i>AXMATQULOVA MAXFUZA SHUHRAT QIZI</i>	МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YO'NALISHI TALABALARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-KOGNITIV XUSUSIYATLARI	PEDAGOGIKA	203
	ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ		
	LINGUO-COGNITIVE FEATURES OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN PRESCHOOL EDUCATION STUDENTS		
<i>USMONOV RAHIM RAXMONALI O'G'LI</i>	DEFFENBACHERNING DRIVING ANGER SCALE METODI ASOSIDA HAYDOVCHILARDAGI G'AZABLANISH XUSUSIYATLARINI HAYDOVCHILIK TAJRIBASI KESIMIDA O'RGANISH	PSIXOLOGIYA	209
	ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ ГНЕВА У ВОДИТЕЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОДИТЕЛЬСКОГО СТАЖА НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ДЕФФЕНБАХЕРА «DRIVING ANGER SCALE»		
	A STUDY OF DRIVERS' ANGER CHARACTERISTICS BASED ON DRIVING EXPERIENCE USING DEFFENBACHER'S "DRIVING ANGER SCALE" METHOD		

<i>XUDDIYEVA UMIDA AMINJON QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	PEDAGOGIKA	215
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DEVELOP MATHEMATICAL LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>NEMATOV SOHIB TESHAYEVICH</i>	JISMONIY MASHQLAR JARAYONIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA CHIDAMLILIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	PSIXOLOGIYA	221
	ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ВЫНОСЛИВОСТИ В ПРОЦЕССЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ		
	THE RELATIONSHIP BETWEEN PSYCHOLOGICAL RESILIENCE AND ENDURANCE DURING PHYSICAL EXERCISE		
<i>RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH</i>	HARBIY XIZMATGA PSIXOFIZIOLOGIK TAYYORLASH JARAYONIDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI	PSIXOLOGIYA	228
	ЗНАЧЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ		
	THE IMPORTANCE AND EFFECTIVENESS OF DIGITALIZATION IN THE PROCESS OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL PREPARATION FOR MILITARY SERVICE		
<i>ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI</i>	MAXSUS TA'LIM HATIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLAB QUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	PEDAGOGIKA	232
	РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ		
	THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS		
<i>ASKAROVA ZEBINISO AKBAR QIZI</i>	FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING O'RNI	PEDAGOGIKA	240
	РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ		
	THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PHILOLOGY STUDENTS		

<i>AVEZOV DAVRONBEK SOBUROVICH</i>	BO'LAJAK BOSHLANG'CH SINFLAR O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	246
	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ СРЕДСТВ БУДУЩИМ УЧИТЕЛЯМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN USING INFORMATION AND COMMUNICATION TOOLS		
<i>AXMEDOVA NILUFAR ILHOMBOY QIZI</i>	NOGIRONLIGI BOR XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	PEDAGOGIKA	252
	ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН С ИНВАЛИДНОСТЬЮ		
	WAYS TO IMPROVE THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR WOMEN WITH DISABILITIES		
<i>IZZATOV SHERZOD SAMAD O'GLI</i>	SUN'YI INTELLEKT VA RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	257
	МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ		
	MECHANISMS FOR ENSURING THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE DIGITAL ENVIRONMENT		
<i>MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA</i>	O'ZBEK XALQ URF-ODATLARINING O'QUVCHILAR TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	262
	РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ОБЫЧАДОВ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ		
	THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK TRADITIONS IN THE EDUCATION OF STUDENTS		
<i>NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA</i>	ONKOLOGIK BEMORLARDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	267
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ У ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ПАЦИЕНТОВ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING PSYCHOLOGICAL ADAPTATION IN ONCOLOGY PATIENTS		
<i>RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	276
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL MATURITY		

<i>SAFAROVA SARVINOZ</i>	KOMMUNIKATIV MASHQLAR ASOSIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA BAHOLASH MEZONLARI	PEDAGOGIKA	283
	КРИТЕРИИ ДИАГНОСТИКИ И ОЦЕНКИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ		
	CRITERIA FOR DIAGNOSING AND ASSESSING THE LEXICAL COMPETENCE OF SENIOR SECONDARY SCHOOL STUDENTS BASED ON COMMUNICATIVE EXERCISES		
<i>SAYIROVA DILOBAR RAXIMOVNA</i>	OLIJ TA'LIMDA MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATUVCHI TOPSHIRIQLAR: DUNYO VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	PEDAGOGIKA	289
	ЗАДАНИЯ ОБУЧАЮЩИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: МИРОВОЙ И УЗБЕКСКИЙ ОПЫТ		
	TEACHING ASSIGNMENTS THAT FOSTER INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION: GLOBAL AND UZBEK EXPERIENCE		
<i>TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	PEDAGOGIKA	294
	МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' IDENTITY BASED ON NATIONAL VALUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>XOMUDJONOVA FERUZA KOMILJON QIZI</i>	MURAKKAB YUKLAMALARNI HISOBGA OLGAN HOLDA 15-16 YOSHDAGI SPORTCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA ANIQLASH	PEDAGOGIKA	302
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПОРТСМЕНОВ 15-16 ЛЕТ С УЧЕТОМ СЛОЖНЫХ НАГРУЗОК		
	IMPROVING AND ASSESSING THE SPECIAL PREPAREDNESS OF 15-16-YEAR OLD ATHLETES TAKING INTO ACCOUNT COMPLEX TRAINING LOADS		



Sayipova Dilobar Raximovna,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: dilobar.saipova@gmail.com
Orcid: 0009-0007-3762-8722

OLIV TA'LIMDA MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATUVCHI TOPSHIRIQLAR: DUNYO VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan mamlakatlar ta'limida mustaqil ta'limga alohida e'tibor berilishi ta'kidlanadi, chunki globallashtirilgan sharoitda mustaqil fikrlaydigan, keng tafakkurli mutaxassislar zarur. Mustaqil ta'lim topshiriqlari yaratishda dunyo tajribasi o'rganildi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda amaliyot, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Shu sababli topshiriqlar faqat nazariy materialni yodlashga emas, balki uni tahlil qilish, qo'llash va yangi vaziyatga ko'chirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatilishi, mustaqil topshiriqlarning didaktik mohiyati hamda ularning ko'nikma va malaka shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Mustaqil ishning talaba faoliyatini faollashtirish, bilish jarayonini chuqurlashtirish va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, ko'nikma, malaka, didaktika, talaba faolligi.

ЗАДАНИЯ ОБУЧАЮЩИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: МИРОВОЙ И УЗБЕКСКИЙ ОПЫТ

Аннотация. В статье подчеркивается, что в системах образования развитых стран самостоятельному обучению уделяется особое внимание, поскольку в условиях глобализации возрастает потребность в специалистах, способных мыслить самостоятельно и широко. Изучен мировой опыт создания заданий для самостоятельного обучения. При организации самостоятельного обучения важную роль играют интеграция практики, учебных дисциплин и производства. Поэтому такие задания направлены не только на запоминание теоретического материала, но и на его анализ, применение и перенос в новые ситуации. В статье также рассматриваются задания, обучающие самостоятельной работе в системе высшего образования, дидактическая сущность самостоятельных заданий и их роль в формировании навыков и умений. Анализируется значение самостоятельной работы в активизации учебной деятельности студентов, углублении процесса обучения и укреплении профессиональной подготовки.

Ключевые слова: высшее образование, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, навыки, компетенция, дидактика, активность студентов.

TEACHING ASSIGNMENTS THAT FOSTER INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION: GLOBAL AND UZBEK EXPERIENCE

Abstract. The article emphasizes that independent learning receives special attention in the education systems of developed countries, since in the context of globalization there is a growing need for specialists who can think independently and broadly. World experience in creating independent learning tasks was studied. Practical training, academic disciplines, and production integration play an important role in organizing independent learning. Therefore, such tasks are aimed not only at memorizing theoretical material, but also at analyzing it, applying it, and transferring it to new situations. The article also describes the role of tasks that teach independent work in higher education, the didactic nature of independent assignments, and their importance in forming skills and competencies. The significance of independent work in activating student activity, deepening the learning process, and strengthening professional training is analyzed.



Key words: higher education, independent work, independent learning, skills, competence, didactics, student activity.

Kirish. Dunyo miqyosida oliy ta'limda mustaqil ta'lim shakli, asosan, talaba markazli, kompetensiyaviy va elektron resurslarga tayangan modelda olib boriladi. Unda o'qituvchi bilim beruvchidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va nazoratchi vazifasini bajaradi, talaba esa faol subyekt sifatida ishlaydi. Maqolalarda rivojlangan mamlakatlar ta'limida mustaqil ta'limga alohida e'tibor berilishi ta'kidlanadi, chunki globallashtirilgan sharoitda mustaqil fikrlaydigan, keng tafakkurli mutaxassislar zarur. Mustaqil ta'limni tashkil etishda amaliyot, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Shu sababli topshiriqlar faqat nazariy materialni yodlashga emas, balki uni tahlil qilish, qo'llash va yangi vaziyatga ko'chirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham mustaqil ta'limni takomillashtirishga e'tibor kuchaygan, ayniqsa kredit-modul tizimi sharoitida bu yo'nalish yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqotlarda mustaqil ta'limni tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda tashkil etish talabalarning o'quv faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini oshirishi qayd etilgan. Bunda elektron resurslar, aniq yo'riqnomalar, oraliq nazorat va individual yondashuv muhim hisoblanadi[2].

Zamonaviy oliy ta'limda talabaning tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliy vaziyatlarda qo'llovchi shaxs sifatida shakllanishi muhim pedagogik vazifalardan biridir. Shu ma'noda mustaqil ishlashga o'rgatuvchi topshiriqlar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Bunday topshiriqlar talabaning bilish faoliyatini faollashtiradi, o'qish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi hamda o'z-o'zini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mustaqil ta'lim o'quv materialining ma'lum qismini talaba tomonidan o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida, auditoriya ichida va undan tashqarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir. Shu sababli mustaqil topshiriqlar faqat qo'shimcha mashq emas, balki bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqola nazariy-tahliliy metod asosida tayyorlandi. Mavzuga oid o'quv-uslubiy materiallar, maqolalar va metodik qo'llanmalar mazmunan qiyoslandi, ulardagi asosiy tushunchalar tizimlashtirildi va oliy ta'limdagi mustaqil ishni tashkil etish bilan bog'liq g'oyalar umumlashtirildi. Tahlilda mustaqil ishning didaktik vazifalari, topshiriq turlari va o'qituvchi faoliyatining metodik o'rni alohida ajratib ko'rsatildi.

Muhokama va natijalar. Tahlil natijalariga ko'ra, mustaqil ishlashga o'rgatuvchi topshiriqlar talabaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va axborot bilan ishlash malakasini rivojlantiradi. Mazkur topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib borishi kerak: avval o'qituvchi ko'rsatmasi asosida bajariladigan mashqlar, keyin esa mustaqil tahlil, taqqoslash, sharhlash va kichik tadqiqot vazifalari beriladi. Adabiyot bilan ishlash, annotatsiya tayyorlash, muammoli savollarga javob yozish va taqqoslash jadvali tuzish kabi topshiriqlar ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi. O'qituvchining yo'naltiruvchi roli va baholash mezonlarining aniqligi topshiriq samaradorligini sezilarli oshiradi[3].

Mustaqil ishning mazmuni shundan iboratki, u talaba faoliyatini faqat nazorat qilish emas, balki uni aqliy mehnatga jalb etish va o'z ustida ishlashga undashdir. Agar topshiriq aniq maqsadga ega bo'lmasa yoki metodik jihatdan yetarli ta'minlanmasa, u oddiy formal vazifaga aylanib qoladi. Aksincha, tizimli va maqsadli tashkil etilgan topshiriqlar talabaning ko'nikma va malakasini real ravishda shakllantiradi, chunki bilim faoliyatga aylangandagina mustahkamlanadi. Shu sababli oliy ta'limda mustaqil ish auditoriya mashg'ulotlarining muqobili emas, balki ularni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi didaktik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Dunyoda kasbiy ta'lim tizimini yaratish barqaror rivojlanishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, u tabiat va jamiyatning uyg'un ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ayniqsa, jahon pedagogikasi, kasbiy tayyorgarlikning nazariyasi va amaliyoti barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, texnik va texnologik tafakkuri yuqori, kasbiy tayyorgarligi kuchli bo'lgan yangi shaxsni shakllantirishga qaratilgan[4].



Ta'limning global tizimida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Rossiya modellari keng qo'llaniladi. Bu modellar insonparvarlik, tabiatga yaqinlik (yashillashtirish) va yuqori texnologiyalarga (fundamentalizatsiya) asoslangan universal tayyorgarlikni ta'minlaydi hamda nafaqat nazariy, balki amaliy tayyorgarlikning ham chuqur rivojlantirilishi bilan ajralib turadi. Ustuvor yo'nalishlar qatoriga mehnat bozorining xalqaro talablari va malaka mezonlariga muvofiq kadrlar tayyorlash, kasbiy ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, nazariya va amaliy kasbiy ta'limning uyg'unligini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislar uchun amaliy tayyorgarlikni innovatsion tashkil etish kiradi. Masalan, AQShda Technical, Junior Colleges va Community Colleges, Buyuk Britaniyada esa NVQ (National Vocational Qualifications) hamda GNVQ (General National Vocational Qualifications) dasturlari qo'llaniladi.

Mamlakatimizda bo'lajak mutaxassislarni amaliy tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, biroq amaliy kasbiy tayyorgarlik metodikasi, uning uslubiy va metodologik jihatlari nazariy jihatdan yetarlicha asoslanmagani hamda aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmagani sababli pedagogik amaliyotda jiddiy kamchiliklar mavjud. Amaliy kasbiy tayyorgarlik — bu ma'lum bir amaliy kasbiy tayyorgarlik metodini qo'llash orqali ko'rgazmali, audiovizual yoki audiovizual didaktik vositalardan foydalangan holda bajariladigan pedagogik muloqotlar yoki metodik (texnologik) harakatlar tizimidir. Bunda uning mazmuni bilan amalga oshirish jarayoni o'rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjud bo'ladi[5].

Respublikamizning yanada rivojlanishi, iqtisodiyotning barqaror o'sishi va modernizatsiyasi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash”, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayonida innovatsion g'oya, texnologiya va ishlanmalarni faol qo'llash, qobiliyatli va samarali kadrlar tayyorlash, kasbiy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi yaqin hamkorlikni ta'minlash, kasbiy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ta'lim dasturlari strukturasi va mazmunini uzluksiz takomillashtirish, ularning samaradorligini ta'minlash hamda umumiy ta'lim metodologiyasi doirasida moslashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Kasbiy ta'lim jarayonining asosini o'qituvchilar va amaliyot rahbarlari tomonidan beriladigan hamda talabalar tomonidan kasbiy o'qitish jarayonida o'zlashtiriladigan o'zaro bog'liq kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tashkil etadi[6].

“Bilim – bu insonning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari, borliqning inson tafakkuridagi aksidir”. Bilim – bu nazariy, amaliy va amaliy qo'llanmali faoliyatlar haqida o'rganilgan, esda saqlangan, qabul qilingan va inobatga olingan tushunchalar tizimidir. Bu ma'no umumiy tarzda “kasbiy bilim” tushunchasiga ham taalluqlidir.

Kasbiy ta'lim – mutaxassisning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar majmui; kasbiy ta'lim darsida talabaning bilish faoliyati natijasida kasbiy qonuniyatlar, qoidalar va ish usullarini o'zlashtirishi, tizimlashtirishi va mustahkamlashi ro'y beradi. “Ko'nikma – bu shaxsning avvalgi tajribaga asoslanib muayyan faoliyat yoki harakatni bajarish qobiliyatidir”.

Kasbiy ko'nikma – mutaxassisning o'zlashtirgan bilimlarini noodatiy, odatiy bo'lmagan va murakkab vaziyatlarda amalda qo'llay olish qobiliyatidir; bu – kasbiy faoliyatni ongli ravishda, tez, tejamkor, to'g'ri, kam jismoniy va ruhiy kuch sarflagan holda bajarish jarayoni va natijasidir. Boshqacha aytganda, kasbiy ko'nikma – mutaxassis ega bo'lgan kasbiy bilimga asoslangan amaliy harakatlarni bajarish usulidir; ish sharoitlariga yo'nala olish, zarur usullarni qo'llash va vazifani hal etishga tayyor turish qobiliyatidir. Kasbiy ko'nikmalar quyidagi darajalarga bo'linadi: 1) oddiy ko'nikmalar; 2) o'rta darajadagi ko'nikmalar; 3) to'liq ko'nikmalar. “Malaka – bu yaxshi mehnat qilish orqali egallangan kasbdir”.

Har qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, inson o'z maqsadlariga yetishishi qiyin bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislar kasb egallash asoslarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadilar. Yuksak intellektual salohiyatga ega, bilimli, tashabbuskor mutaxassislar mamlakatimizda ishlab chiqarishning yanada jadal rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi[7].



Kasbiy kompetensiya – bu shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, qadriyatlar va sifatlar majmui bo'lib, u malakani namoyon etish yoki unga ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir. Uning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: mutaxassislik bo'yicha bilimlarni egallash; mustaqil ishlash; ish jarayonlarini rejalashtirish, baholash va qayta tashkil etish qobiliyati; talabalar motivatsiyasi; zamonaviy texnologiyalarni bilish; ish jarayonida innovatsiyalarni qo'llash; texnologik operatsiyalarni mukammal bilish va boshqalar.

So'nggi 10 yil ichida “kompetensiya” va “jurisdiksiya” tushunchalari ancha keng qo'llanila boshlandi. Shu sababli ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, avvalo, Yevropa va umuman jahon iqtisodiyotining globallashuvi, ayniqsa, Kopengagen va Boloniya jarayonlari asosida kasbiy ta'lim integratsiyasining tobora kuchayib borayotgan tendensiyasi natijasi sifatida qaraladi. Kompetensiya ilmiy kategoriya sifatida 1990-yillardan boshlab kasbiy ta'limga tatbiq etilgan va alohida kompleks tadqiqotlar predmetiga aylangan. Shu bilan birga, kasbiy kompetensiya kichik mutaxassisning yaxlit sifatini, ya'ni ish samaradorligini belgilaydigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini, mutaxassisning kasbiy sifatlarini, ishga nazariy va amaliy tayyorgarligini ifodalaydi. Shunday qilib, “kompetensiya” atamasi “men bilardim” ma'nosiga yaqin bo'lgan ko'nikma, malaka, qobiliyat va amaliy tajribalar majmuini anglatadi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv, birinchi navbatda, ta'limning amaliy jihatlariga urg'u beradi, uning amaliy yo'nalganligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, “kompetensiya” tushunchasiga tayanuvchi yondashuv shaxsiy sifatlar, jumladan, motivatsiya, axloqiy me'yorlar va boshqa insonparvar qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi[3].

Aniqki, kompetensiya nafaqat ta'lim natijalari – bilim, ko'nikma va malakalarni, balki ehtiyoj-motivatsiya sohasi hamda shaxs qadriyatlariga yo'naltirilganlikni, uning axloqiy, ijtimoiy va xulqiy tarkibiy qismlarini ham qamrab oladi. Iqtisodiyotning globallashuvi va Yevropadagi kasbiy ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlari ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilari muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalar masalasini kun tartibiga qo'ydi. V. Xutmacher 1996-yilda Bern shahrida Yevropa Kengashiga taqdim etgan hisobotida yosh yevropaliklar egallashi kerak bo'lgan beshta asosiy kompetensiyani ko'rsatadi:

a) siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar – mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, guruh qarorlarida ishtirok etish, zo'rvonlikka murojaat qilmasdan nizolarni hal eta olish, demokratik institutlarni qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish qobiliyati;

b) ko'p madaniyatli jamiyatda yashash bilan bog'liq madaniyatlararo kompetensiyalar – farqlarni qabul qilish, boshqalarni hurmat qilish, turli madaniyat, til va din vakillari bilan birga yashay olish, irqchilik va ksenofobiyaga nisbatan murosasizlik;

c) kommunikativ kompetensiyalar – og'zaki va yozma muloqotni egallash, bir nechta aloqa tillarini bilish va qo'llay olish;

d) axborot kompetensiyasi – zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, ularning kuchli va zaif tomonlarini tushunish, ommaviy axborot vositalari tarqatayotgan axborot va reklamalarga tanqidiy munosabat bildirish;

e) uzluksiz ta'lim kompetensiyasi – hayot davomida o'qib-o'rganish qobiliyati, shaxsiy va ijtimoiy hayotda uzluksiz ta'limning asosi sifatida.

Ko'rinib turibdiki, bu muhim kompetensiyalar zamonaviy jamiyatda insoniy-kasbiy yetuklikning eng umumiy va keng tarqalgan ifodasidir[6].

Mazkur tadqiqot tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Dunyo tajribasi hamda O'zbekiston amaliyotini qiyosiy o'rganish natijasida mustaqil ishlashga o'rgatuvchi topshiriqlar nafaqat bilimlarni mustahkamlash vositasi, balki talabaning ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik mexanizm ekanligi aniqlandi.

Jahon tajribasida, xususan rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limga yo'naltirilgan topshiriqlar ko'proq amaliy faoliyat bilan bog'langanligi kuzatildi. Bunday topshiriqlar loyiha ishlari, keys-stadilar, tadqiqot vazifalari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli hamkorlik asosidagi faoliyatlar va raqamli platformalar yordamida bajariladigan vazifalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi hamda



ularda mustaqil qaror qabul qilish, axborotni saralash va undan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantiradi. Ayniqsa, talabaning o'qituvchi nazoratidan asta-sekin mustaqil faoliyatga o'tishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda mustaqil ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani aniqlandi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'limning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi va raqamli ta'lim texnologiyalarining keng qo'llanilishi talabalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjudligi kuzatildi. Jumladan, ayrim hollarda mustaqil topshiriqlar talabalarning ijodiy va tahliliy faoliyatini rivojlantirishga emas, balki faqat nazariy ma'lumotlarni takrorlashga yo'naltirilganligi, topshiriqlarning murakkablik darajasi va baholash mezonlari yetarlicha aniqlashtirilmaganligi aniqlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, mustaqil ishlashga o'rgatuvchi topshiriqlarni samarali tashkil etishda bir necha omillar muhim hisoblanadi. Xususan, topshiriqlarning amaliy yo'nalishga ega bo'lishi, real muammolar bilan bog'lanishi, talabalar qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, baholashning shaffof mezonlarini ishlab chiqish va muntazam qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish talabalar motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, dunyo tajribasi va O'zbekiston amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda mustaqil ishlashga o'rgatuvchi topshiriqlarni takomillashtirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Shu sababli topshiriqlarni ishlab chiqishda xalqaro ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimi xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish, talabalarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi innovatsion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Zamonaviy kichik mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi yuqori texnik va ixtisoslashgan bilimlarni hamda keng qamrovli ish usullarini birlashtiruvchi muayyan lavozim vazifalarini bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. Yuqoridagi mulohaza va ta'riflardan kelib chiqib, kompetensiya — bu inson yaxshi xabardor bo'lishi lozim bo'lgan bilim, tajriba va masalalar doirasidir. Muayyan sohada kompetent bo'lgan shaxs o'sha sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bilim va qobiliyatga ega bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislar uchun kasbiy ko'nikmalar asoslari amaliy kasbiy ta'lim jarayonida shakllanadi. Bu esa muhandislar, o'qituvchilar va amaliyotchilardan kasbiy tayyorgarlikning yuqori samarali tashkiliy-metodik modelini yaratish va joriy etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi / Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – 112 b.
2. Avazov Sh., Muslimov N., Qosimov Sh., Xodiev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta'limning usullari va texnologiyalari (chizmalar, jadvallar va rasmlar asosida): metodik qo'llanma. – T.: Navro'z, 2014. – 300 b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. – 704 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. – 704 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2003. – 704 b.
6. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. fals. dokt. diss. – T.: KHTTIRUMOI, 2018. – 166 b.
7. Xo'jaboev A.R., Qosimov Sh. Amaliy kasbiy ta'limni tashkil etish va o'tkazish metodlari: kasb-hunar kollejlari maxsus fanlar o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. – T.: CSTO, 2007. – 148 b.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: -998 (93) 689-80-90

Ta'limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 7-Son, 1-Qism.